

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARINING ADABIY AHAMIYATI**Rahmatova Moxlaroy Dilshod qizi****Farg’ona davlat universiteti****Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi****1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19979156>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari ilmiy va adabiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, undagi ramziy obrazlar tizimi va adolatli jamiyat qurish g’oyalari zamonaviy ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so’zlar: Yusuf Xos Hojib, Qutadg’u bilig, Qoraxoniylar davri, turkiy adabiyot, didaktik doston, adolatli jamiyat, ramziy obrazlar, Kuntug’di, Oytuldi, O’gdulmish, O’zg’urmish, siyosiy falsafa, komil inson, turkiy davlatchilik, Turu (Qonun), o’rta asrlar falsafasi.

Abstract: This article analyzes Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu Bilig" from a scientific and literary perspective. The history of the work's creation, its system of symbolic images, and the ideas of building a just society are covered based on modern scientific sources.

Keywords: Yusuf Khos Hajib, Kutadgu Bilig, Karakhanid period, Turkish literature, didactic epic, just society, symbolic images, Kuntugdi, Oytuldi, Ogdulmish, OZgurmish, political philosophy, perfect man, Turkish statehood, Turu (Law), medieval philosophy.

XI asr Turkiy madaniyat tarixida “Oltin davr”ning boshlanishi hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib tomonidan 1069-1070 yillarda yaratilgan “Qutadgu bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) shunchaki adabiy asar emas, balki turkiy tilda yozilgan ilk fundamental siyosiy-falsafiy traktatdir. Asar Islomiy qadriyatlar va qadimiy turkiy “Tura” (Qonun) tushunchalarining sintezi sifatida namoyon bo’ladi. Qolaversa, bu asar Qoraxoniylar sulolasining hukmdori Tavg’och Bug’roxonga taqdim etilgan. Shuningdek,

Muallif o’z oldiga jamiyatning har bir a’zosi, xususan, hukmdordan tortib oddiy dehqongacha qanday yashashi va o’z vazifasini qanday bajarishi kerakligi haqidagi universal qo’llanma yaratishni maqsad qilgan.

Asar nomining o’zi chuqur ma’noga ega: **Qut:** Qadimiy turkiy tushuncha bo’lib, u nafaqat “baxt”, balki “hayotiy quvvat”, “ilohiy marhamat” va “davlatni boshqarish huquqi”ni anglatadi. Yusuf Xos Hojib talqinida “Qut” o’zgaruvchan, o’tkinchi kategoriya bo’lib, uni faqat “Bilig” (Bilim) orqaligina jilovlash mumkin.

Bilig: Bu yerda shunchaki axborot emas, balki “zakovat”, “ma’rifat” va “donolik” ma’nosida keladi. Muallifning fikricha, bilim insonni hayvoniy tabiatdan insoniy darajaga ko’taruvchi yagona vositadir.

Asar masnaviy janrida, mutaqorib vaznida yozilgan. U 6500 dan ortiq baytni o’z ichiga oladi. Asarning kompozitsion asosi to’rt buyuk tushunchaning personifikatsiyasi (shaxslantirilishi) ustiga qurilgan. Bu o’sha davr Sharq falsafasidagi “To’rt unsur” nazariyasiga ham ishora qilishi mumkin:

Kuntug’di (Adolat): Quyosh timsoli. Quyosh barcha uchun barobar nur sochgani kabi, hukmdor ham adolatda barcha tabaqalarga teng qarashi shart. U asarda “Turu” (Qonun) va barqarorlik ustuni sifatida ta’riflanadi.

Oytuldi (Davlat/Baxt): Oy timsoli. Oy goh to'ladi, goh kamayadi. Baxt ham shunday – u o'zgaruvchan. Shuning uchun muallif davlat rahbarlarini baxtga (omadga) emas, balki aqlga suyanishga chaqiradi.

O'gdulmish (Aql): Insoniy kamolotning cho'qqisi. U Oytuldining o'g'li sifatida tasvirlanishi bejiz emas – baxtni saqlab qolish uchun aql kerak degan mantiq yotadi.

O'zg'urmish (Qanoat/Oqibat): Bu obraz asarga so'fiylik elementlarini olib kiradi. U dunyo lazzatlaridan voz kechgan zohid sifatida hayotning oxirati va ma'naviy poklanish haqida so'zlaydi.

Bundan tashqari, Yusuf Xos Hojib jamiyatni bir butun organizm sifatida ko'radi va har bir tabaqaning o'z funksional vazifasini belgilab beradi. Uning ijtimoiy qarashlari Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi g'oyalar bilan hamohangdir:

Ziyolilar (Olimlar): Jamiyatning ko'zi. Muallif ularni e'zozlashni davlat ravnaqi uchun eng birinchi shart deb biladi.

Harbiylar: Davlatning qalqoni. Ularning jasurligi va sadoqati doimiy nazorat qilinishi kerak.

Dehqon va Hunarmandlar: Jamiyatning iqtisodiy tayanchi. Ular "to'yintiruvchi" tabaqa sifatida ulug'lanadi.

Savdogarlar: Madaniyatlararo ko'prik. Ular orqali dunyo bilimlari va ne'matlari almashiladi.

Shu kabi buyuk hamohanglikka egaligi, hozirgi kunda barchamizga, sir emasligi ma'lumdir.

Qolaversa, bu asarda so'z va odob haqida bir qancha nasihatli pandnomalar ham keltirilgan. Asarning katta qismi shaxsiy axloq masalalariga bag'ishlangan. Yusuf Xos Hojib tushunchasidagi "Kamil inson" – bu o'z tilini tiya olgan va bilimini amalda qo'llagan insondir.

"Tilingni ehtiyot qil, boshing ketmasin, so'zingni ehtiyot qil, tishing sinmasin."

Muallifning fikricha, insonning barcha baxtsizliklari ikki narsadan: johillik (bilimsizlik) va tilni tiymaslikdan kelib chiqadi.

"Adolat bilan el yasha, zulm bilan el yo'qolur."

Bu jozibador nasihatlar ortida inson har doim adolat ila yashashi insonlarning ong ostiga uqturilishi ta'kidlangan.

Muallif davlatni boshqarishda faqat kuchga emas, balki qonun ustuvorligiga (turu) tayanishni uqtiradi.

Bu asar dunyo miqyosida ham bir qancha ilmiy nusxalari hamda dunyo miqyosidagi tadqiqotlar amalga oshirilgan.

"Qutadg'u bilig" asari bugungi kunda jahon turkiyshunosligining eng qadriyatli manbalaridan biridir. Asarning uchta asosiy qo'lyozma nusxasi saqlanib qolgan:

1. **Vena (Hirotda) nusxasi (1439-yil):** Hirotda ko'chirilgan, uyg'ur yozuvida. Bu nusxa asarning eng qadimgi yozuv an'alarini saqlab qolganligi bilan qimmatli.

2. **Qohira nusxasi:** Misr milliy kutubxonasida saqlanadi, arab yozuvida.

3. **Namangan nusxasi:** 1914-yilda topilgan, eng to'liq va boyitilgan nusxa hisoblanadi. Unda asarning yozilish sabablari haqidagi muqaddimada boshqa nusxalarda uchramaydigan muhim ma'lumotlar bor.

Bu borada, Asarni o'rganish bo'yicha jahon miqyosida bir necha ilmiy maktablar shakllangan:

Turkiya maktabi: Reshid Rahmeti Arat asarning tanqidiy matnini yaratgan.

Rossiya maktabi: V.V. Radlov asarni ilk bor nemis tiliga tarjima qilib, nashr etgan.

O'zbekiston maktabi: Fitrat, Qayum Karimov, Boqijon To'xliyev. Ayniqsa, Qayum Karimov tomonidan asarning to'liq akademik nashri va o'zbek tilidagi nasriy tabdili amalga oshirilganligi milliy madaniyatimiz uchun ulkan voqea bo'lgan.

Bundan tashqari, Rossiyalik olim V.Radlov, turk olimi R.Arat va o'zbek olimlari Q.Karimov, B.To'xliyev kabi mutaxassislar asarning matnshunosligi va tahlili ustida ulkan ishlarni amalga oshirganlar.

Xulosa

"Qutadgu bilig" – shunchaki XI asr yodgorligi emas. U turkiy xalqlarning davlatchilik tafakkuri, falsafiy qarashlari va estetik ideallarining konsentratsiyalashgan shaklidir. Undagi "Adolat + Bilim = Saodat" formulasi bugungi zamonaviy demokratik jamiyatlar uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Qolaversa, Undagi komil inson g'oyasi, adolatli boshqaruv tamoyillari va ilmga bo'lgan yuksak ehtirom hozirgi o'zbek pedagogikasi va davlatchilik etikasi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" (Qayum Karimov tahriri ostida). - Toshkent, 1971.
2. To'xliyev B. "Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari". - Toshkent, 1990.
3. Kononov A.N. "Yusuf Xas-Hadjib i ego poema 'Kutadgu bilig'". - Moskva, 1973.
4. Arat R.R. "Kutadgu Bilig: Metin". - Ankara, 1947.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (Q harfi bo'limi)